

## “ESTRADA XONANDALIGIDA VOKAL IJRO TEXNIKASI VA VOKAL MAKTABLARINING NAZARIY-AMALIY AHAMIYATI”

**Tadjiyev To‘lqin Berdiyrovich**

*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi Botir Zokirov nomidagi Milliy  
Estrada san’ati instituti “Estrada xonandaligi” kafedrasida o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada estrada xonandaligida vokal ijro texnikasining nazariy va amaliy asoslari hamda turli vokal maktablarining ijrochilik san’atiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, professional xonandani tayyorlash jarayonida nafas olish texnikasi, ovoz apparatini boshqarish, artikulyatsiya va diksiyani rivojlantirish kabi muhim pedagogik jihatlar ko‘rib chiqilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *estrada xonandaligi, vokal texnika, vokal maktablari, nafas olish texnikasi, artikulyatsiya, diksiya, ovoz apparati, ijrochilik mahorati, tembr, diapazon.*

Zamonaviy musiqa madaniyati tizimida estrada xonandaligi eng ommaviy va dinamik rivojlanayotgan ijrochilik yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning keng auditoriyani qamrab olishi, global madaniy jarayonlar bilan chambarchas integratsiyalashuvi hamda turli musiqiy janrlar bilan sintezlashuvi ushbu sohada ijrochidan yuqori darajadagi professional tayyorgarlikni talab etadi.

Xususan, estrada ijrochiligining o‘ziga xosligi shundaki, unda nafaqat musiqiy eshituv va badiiy did, balki mukammal shakllangan vokal ijro texnikasi ham hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, estrada xonandasining ijrochilik mahorati, avvalo, uning ovoz apparatini ilmiy asosda boshqarish qobiliyati, ya’ni vokal texnikasining puxtaligiga bevosita bog‘liqdir.

Mazkur texnika esa o‘z-o‘zidan shakllanmaydi, balki muayyan tarixiy va metodik asosga ega bo‘lgan vokal maktablari ta’sirida rivojlanadi. Demak, estrada xonandasining professional darajasini belgilovchi asosiy mezonlardan biri uning qaysi vokal maktabi an’analariga tayanishi, ushbu maktabning nazariy tamoyillarini qanchalik chuqur o‘zlashtirgani va ularni amaliy ijro jarayonida qay darajada samarali qo‘llay olishidir.

Vokal san’ati tarixiy taraqqiyotini tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, Yevropa musiqa madaniyatida ushbu yo‘nalishning dastlabki shakllanish va rivojlanish markazlaridan biri sifatida Italiya alohida o‘rin egallagan.

Ilk bosqichlarda Italiya vokal san’ati asosan diniy marosimlar va cherkov musiqa an’analari bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan bo‘lib, unda inson ovozi ilohiy matnlarni ifodalovchi asosiy vosita sifatida qaralgan. Bu jarayonda vokal ijro texnikasi asta-sekin takomillashib, estetik va badiiy mezonlar bilan boyib borgan.

Vaqt o‘tishi bilan Italiya vokal maktabi diniy doiradan chiqib, dunyoviy musiqa janrlariga, xususan, opera va kamer vokaliga faol tatbiq etila boshladi. Natijada, ushbu maktab vokal san’atining nazariy va amaliy asoslarini tizimli ravishda shakllantirib,

keyinchalik butun Yevropa vokal madaniyatiga, shu jumladan zamonaviy vokal ijrochiligiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Ayniqsa, "bel canto" an'alarining vujudga kelishi vokal ijro texnikasining mukammallashuvi, ovozning tabiiyligi, elastikligi va ifoda imkoniyatlarining kengayishida muhim bosqich bo'ldi. Mazkur maktabning shakllanishi va rivojlanishida XVI–XVII asr mutafakkirlari va pedagoglarining ilmiy-nazariy qarashlari muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, Gioseffo Zarlino, Giulio Caccini kabi ijodkorlar vokal san'ati nazariyasini ishlab chiqish, ijro usullarini takomillashtirish hamda pedagogik yondashuvlarni tizimlashtirishda katta hissa qo'shganlar.

Ularning ilmiy va amaliy merosi natijasida vokal ijrochiligida ovoz apparatini to'g'ri boshqarish, nafas texnikasi, intonatsion aniqlik hamda badiiy ifodaning uyg'unligi kabi muhim tamoyillar shakllandi. Shu bois, bugungi kunda zamonaviy vokal san'atining nazariy va metodik poydevori, ko'p jihatdan, aynan Italiya vokal maktabi an'analari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelmoqda. Vokal san'atida eng asosiy omillardan biri — bu ovoz. Inson ovozi tabiatan har xil diapazonga ega bo'lishi mumkin. Ko'pchilik o'quvchilarda tenor yoki bariton diapazonlari uchraydi, bu esa pedagogik jarayonni nisbatan yengillashtiradi. Biroq, shunday bo'lsa-da, o'quvchilar ovozining bir xilligiga yo'l qo'ymaslik zarur. Shu sababli, o'rgatilayotgan repertuar turlicha ovoz diapazonlarini qamrab olgan bo'lishi lozim. Vokal mashg'ulotlarida nafas olish madaniyati, ovoz apparatining anatomik va fiziologik xususiyatlarini o'rganish, hamda tovushni to'g'ri shakllantirish bo'yicha bilim va ko'nikmalar alohida ahamiyatga ega. Bu vokal san'atining poydevori hisoblanadi. Har bir vokal pedagogi ushbu elementlarni chuqur bilishi va ularni to'g'ri yo'l bilan talabalarga yetkazishi zarur.

Professional xonandani tayyorlash jarayoni murakkab va ko'p bosqichli pedagogik tizimni tashkil etib, u nafaqat tabiiy iste'dodga, balki ilmiy asoslangan metodika, izchillik va maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotlar majmuasiga tayanadi. Mazkur jarayon vokal san'ati nazariyasi va amaliyotining uyg'unligi asosida olib borilib, unda har bir bosqichning o'ziga xos vazifalari va didaktik tamoyillari mavjud. Dastlabki tayyorgarlik bosqichida o'quvchilarga vokal ijrochiligining fundamental asoslari — to'g'ri nafas olish (diafragmal nafas), fonatsiya jarayonini ongli boshqarish hamda ovozni tabiiy va erkin chiqarish ko'nikmalari singdiriladi. Bu bosqich vokal apparatining fiziologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilib, ovoz paychalari, rezonatorlar va artikulyatsion apparatning o'zaro muvofiqligini ta'minlashga qaratiladi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonda individual yondashuv tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir o'quvchining ovoz diapazoni, tembr xususiyatlari va fiziologik imkoniyatlari turlicha bo'lganligi sababli, mashg'ulotlar ularning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda rejalashtiriladi. Ustozning asosiy vazifalaridan biri — o'quvchining ovozini zo'riqtirmagan holda, bosqichma-bosqich rivojlantirish, ortiqcha yuklama va noto'g'ri texnikalarning oldini olishdan iborat.

Vokal texnikasini shakllantirishda izchillik va muntazamlilik muhim metodik talab sifatida namoyon bo'ladi. Chunki ovoz apparati murakkab psixofiziologik tizim bo'lib,

uning imkoniyatlari faqat to'g'ri tashkil etilgan mashqlar orqali bosqichma-bosqich kengayadi. Aks holda, ya'ni noto'g'ri yoki tartibsiz mashg'ulotlar natijasida ovoz sifatining pasayishi, hatto funksional buzilishlar yuzaga kelishi mumkin. Demak, professional xonandani tayyorlash jarayoni ilmiy asoslangan, tizimli va ehtiyotkorona yondashuvni talab etadi. Faqatgina to'g'ri tashkil etilgan pedagogik faoliyat orqali o'quvchining tabiiy vokal imkoniyatlarini to'liq ochish va uni yetuk ijrochi darajasiga olib chiqish mumkin. Xonanda ovozini shakllantirish jarayonida nafas olish usullari, ovoz registrarlari, tembr xususiyatlari, jarangdorlik darajasi va boshqa bir qator badiiy vositalar ustida doimiy ishlash zarur bo'ladi. Faqat shunda ijrochi sahnada kuylayotgan asarini mazmunan va badiiy jihatdan yuqori saviyada tinglovchiga yetkaza oladi. Shu yo'lda vokal pedagogikasi bo'yicha ishlab chiqilgan metodik qo'llanmalar muhim amaliy manba bo'lib xizmat qiladi. Vokal maktabining nazariy va amaliy asoslarini yetarli darajada o'zlashtirmagan holda murakkab musiqiy janrlar — romans, ariya hamda klassik qo'shiqlarni badiiy jihatdan mukammal ifodalash ijrochi uchun sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki mazkur janrlar yuqori darajadagi vokal texnika, musiqiy tafakkur va badiiy talqinni talab etuvchi murakkab ijrochilik shakllari hisoblanadi. Xususan, bunday asarlarni ijro etishda nafasni to'g'ri taqsimlash, intonatsion aniqlikni saqlash, diapazon kengligidan erkin foydalanish, rezonansni to'g'ri yo'naltirish hamda artikulyatsion aniqlikni ta'minlash kabi muhim vokal ko'nikmalar yetarli darajada shakllangan bo'lishi zarur. Aks holda, ijro jarayonida tovushning notekis chiqishi, frazalarining uzilishi, emotsional ifodaning sustligi kabi kamchiliklar yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, vokal maktabi asoslari ijrochining texnik poydevorini tashkil etadi. U nafaqat ovoz apparatini to'g'ri boshqarish ko'nikmalarini shakllantiradi, balki badiiy obrazni chuqur anglash va uni ovoz orqali ifodalash imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Demak, murakkab vokal janrlarni muvaffaqiyatli ijro etish xonandadan yuqori darajadagi texnik yetuklik bilan bir qatorda, rivojlangan badiiy-estetik tafakkurni ham talab etadi.

Ijrochilik san'atida yuksak natijalarga erishish uchun, avvalo, ovoz imkoniyatlarini chuqur o'rganish va ulardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish muhim hisoblanadi. Musiqa rahbari uchun bu bilimlar — pedagogik faoliyatda muhim muvaffaqiyat omili sanaladi. Vokalistning ovozi, uning fiziologik tuzilishi va yosh xususiyatlariga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Ovozlar odatda erkaklar, ayollar va bolalar ovozlariga ajratiladi. Bolalar ovozi o'zining yumshoqligi, tiniqligi va yoqimli jarangdorligi bilan ajralib turadi. Ularning ovoz diapazonlari ikki asosiy turga bo'linadi: diskant va alt. Diskant – bolalarning balandroq tembrdagi ovozidir. Uning odatdagi diapazoni birinchi oktavadagi “do” tovushidan boshlab, ikkinchi oktavadagi “sol” tovushigacha yetadi. Alt esa bolalar orasida pastroq ovoz bo'lib, uning diapazoni kichik oktavadagi “lya” tovushidan ikkinchi oktavadagi “mi” tovushigacha bo'lgan oraliqni qamrab oladi.

Katta yoshdagi vokalchilar ovozi esa jinsiy farqlarga ko'ra turkumlanadi. Erkaklar ovozi asosan bas, bariton va tenor turlariga ajratiladi, har bir tur o'z ichida yana bir necha xil tembrlarga ega bo'lishi mumkin. Ayollar ovozida esa odatda ikki asosiy tur

mavjud: soprano va alt. Ayniqsa soprano ovozi o'z ichida yanada aniqroq toifalarga bo'linadi: koloratura soprano, lirik-koloratura soprano, liriko-dramatik soprano, dramatik soprano va mezzo-soprano kabi. Bu farqlanishlar vokal asarlarni to'g'ri tanlash va ijrochining ovozigiga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Alt (kontralto) — asosan ko'krak rezonatorlari orqali jaranglaydigan, tembr jihatdan chuqur va jozibali ohangga ega ayollar ovozi hisoblanadi. Biroq, ovoz turini aniqlash har doim ham oson kechmaydi. Ayrim hollarda shunday o'ziga xos tembrga ega shaxslar uchraydiki, ularning ovozinani aniq bir toifaga kiritish bo'yicha qaror qilish uzoq vaqt davom etadi.

Har bir insonning ovozi noyob va betakror bo'lib, u o'ziga xos ijodiy salohiyatni o'zida mujassam etadi. Ushbu tabiiy imkoniyatlar faqat ustozning bilimdonligi va pedagogik yondashuvi orqali to'g'ri yo'naltirilgandagina to'la namoyon bo'ladi va yuqori darajadagi vokal mahoratga erishish mumkin bo'ladi.

### 1. Nafas olish texnikasini shakllantirish

Kuylashda barqaror va ifodali ijroni ta'minlashda to'g'ri nafas olish texnikasi yetakchi rol o'ynaydi. Vokal nafasni o'rgatishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

Diafragmatik nafas usuli – Nafas olish va chiqarish jarayonida diaframaning faol ishtirokini ta'minlash orqali ovozning mustahkamligi va davomiyligini oshirishga erishiladi.

Maxsus nafas mashqlari – Havoni chuqur qabul qilib, nazorat ostida chiqarishga yo'naltirilgan mashqlar orqali nafasni muvozanatli taqsimlash ko'nikmasi rivojlantiriladi.

Kontrolli nafas texnikasi – Ovoz chiqarishda havoni tejab ishlatish va ifodaviy kuylashda nafasning to'g'ri taqsimlanishini o'rgatish uchun muhim nazorat mashqlari tatbiq etiladi.

### 2. Ovozni tayyorlash va isitish mashqlari

Ovoz paychalarini faollashtirish va ularni kuylashga tayyor holatga keltirish uchun maxsus mashqlar tizimi muhim ahamiyatga ega:

Vokal gimnastika elementlari – Oddiy, ammo samarali mashqlar yordamida ovoz yo'llari bo'shatiladi va elastikligi ta'minlanadi.

### 3. Artikulyatsiya va diksiyani takomillashtirish

Kuylayotgan matnning ravshan va aniq talaffuzda ifoda etilishi – vokal ijrochanlikning ajralmas jihatlaridan biridir. Bu yo'nalishda quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:

Til va lab mashqlari – Artikulyatsiya apparatini mustahkamlash maqsadida til, lab va jag' mushaklarini faollashtiruvchi mashqlar bajariladi.

Xulosa qilib aytganda, estrada xonandaligida yuqori ijrochilik mahoratiga erishish bevosita vokal ijro texnikasining mukammal o'zlashtirilishi va tarixiy shakllangan vokal maktablarining nazariy hamda amaliy tamoyillarini chuqur bilishga bog'liqdir. Vokal san'ati faqat tabiiy iste'dod bilan emas, balki ilmiy asoslangan pedagogik tizim, izchil mashg'ulotlar va to'g'ri metodika orqali shakllanadi.

Shuningdek, vokal ta'lim jarayonida individual yondashuv, tizimli mashg'ulotlar va bosqichma-bosqich rivojlantirish tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi.

Faqatgina shu shartlar asosida talabning tabiiy vokal imkoniyatlarini to'liq ochish va uni yetuk estrada xonandasi sifatida shakllantirish mumkin.

Umuman olganda, vokal maktablarining nazariy va amaliy merosi zamonaviy estrada xonandaligi rivojida mustahkam ilmiy-metodik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Абдуллин Э. Б. Методологический анализ проблем музыкальной педагогики в системе высшего образования. М.: Прометей, 2020. 188 с.
2. Komil o'g'li, O. I. (2023). VOKAL MUSIQA PEDAGOGIKASINING ASOSIY TAMOYIL VA USLUBLARI. World of Science, 6(5), 706-707.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Tashkent, 2004
4. Abdixodirova, G., & Taxirova, K. (2024). TA'LIM JARAYONIDA MUSIQA NAZARIYASI FANINING AHAMIYATI. Models and methods in modern science, 3(5), 52-56.